

Ko'prikda mashina to'xtaganini ko'rgan politsiyachi Jonson avvaliga unga e'tibor bermadi. Ammo eshik ochilib, undan baland bo'yli erkak tushgach, politsiyachi hushyor tortdi.

U bu yerda bir necha yildan beri soqchilikda turar va Daunbrij ko'prigi nafaqat sevishganlarning uchrashuv joyi, balki o'z joniga qasd qiluvchilarning ham makoni ekanligini juda yaxshi bilardi.

Erkak yon-atrofga diqqat bilan ko'z yugurtirgach, ko'prik panjarasi oldiga keldi va to'siqni ushladi. Politsiyachi ming'irlab so'kindi va uning yoniga yugurib bordi.

-Ajoyib tun,-dedi tartib posboni. O'zini pastga tashlamoqchi bo'lgan kishi shoshilib qo'lini to'siqdan oldi va sigaret tutatdi.-

Tabiatni tomosha qilyapsizmi? Tushunaman. Agar xizmat vazifamni bajarayotgan bo'lmaganimda, hozir men ham sizga o'xshab sevgi haqida o'ylayotgan bo'lardim.

Notanish erkak jimgina yelka qisdi.

-Hozir sizni ko'rib qolib gaplashgim keldi,-gapida davom etdi politsiyachi.-Bir o'zim zerikib turuvdim... Bu yerdan atrof chiroyli ko'rinadi-a?

-Menga hozir chiroyli narsaning keragi yo'q,-xo'rsindi erkak sigaret kulini pastga qoqarkan. Shundagina Jonson uning qoshlari judayam qalin va o'siq ekanligiga e'tibor berdi.- Hozir meni bitta narsa o'ylantiryapti- qanday qilib oson va azoblanmasdan o'lish.

-Bekor qilasiz,-unga taskin bermoqchi bo'ldi politsiyachi.-Qanchalik og'ir bo'lmasin, baribir yashash kerak. Hayot tasodiflarga to'la. Kim biladi, balki ertaga omadingiz kelib, hamma narsa o'zgarib ketishi mumkin.

Notanish kishi suvga tikilganча uzoq o'ylanib turdi, so'ng qo'lidagi sigaret qoldig'ini pastga tashladi va unga qo'lini uzatdi.

-Mening ismim Edvard Rayt.

-Biror noxushlik yuz berdimi?-so'radi politsiyachi.

-Ha, judayam qayg'uli voqea...-bosh silkidi o'z joniga qasd qilmoqchi bo'lgan erkak.-Xotinim vafot etganidan so'ng hayotim ostin-ustin bo'lib ketdi. Uni jonimdan ortiq sevardim, endi yashagim kelmay qoldi.

-E, o'zingizni qo'lga oling,-Jonson uning yelkasiga qo'lini tashladi.-Inson hamma narsaga ko'nikadi, janob Rayt. Yolg'izlikka ham. Yaxshisi, uyingizga boring-da, uxlang. Ko'rasiz, ertaga hammasi yaxshi bo'ladi.

-Bunga ishonchingiz komilmi?

-Albatta.

-Rostdan-a?-ishonqiramadi jonidan to'ygan kishi.

-Ha,-ta'kidladi Jonson,-biz shafqatsiz dunyoda yashaymiz, lekin bu fojia emas. Yashash baribir yaxshi. Daryoning ostida sizni kutib turgan narsa bu hayotdan ko'ra yomonroq.

Rayt uzoq jim qoldi, so'ng indamay mashinasi tomon qadam tashladi. Politsiyachi uning mashinasi ko'zdan yo'qolguncha kuzatib turdi.

Keyin esa Jonson yondaftarini ochdi va yozib qo'ydi: "Edvard Rayt, qoshlari qalin, baland bo'yli erkak, xotini o'lgani uchun ko'prikdan o'zini daryoga tashlamoqchi bo'ldi". U yondaftarini yopib, mashinasiga o'tirdi...

* * *

Psixiatr Bob Smit mijozining so'zlarini eshitarkan, o'ychan qiyofada soqolini qashladi.

-Yashashimdan ma'no qolmadi,-gapida davom etdi bo'yi baland, o'siq qoshlari qalin erkak.-Kecha ko'prikdan o'zimni tashlashimga sal qoldi.

-Sizni nima to'xtatib qoldi?-so'radi doktor.

-Politsiyachi. Bu yaxshi fikr emasligini aytdi.

Bob Smit yana o'ya cho'mdi.

-Doktor, mening oshqozonimni yuvish kerak...

-Nega?-hayron bo'ldi Smit.

-Bu yerga kelishimdan avval bir quti uyqu dorisini ichgandim,-dedi Edvard Rayt.-Qutida yigirmatacha dori bor edi.

Smit uf tortganча o'rnidan turdi va boshini sarak-sarak qilib qo'shni xonaga yo'l oldi.

Oshqozonni yuvish og'riqli bo'lsa-da, dori qonga so'rilib ulgurmagani uchun bemorning hayoti saqlab qolindi.

-Yashaysiz,-dedi Bob Smit.

-Rahmat, doktor.

-Minnatdorchilikning keragi yo'q. Ammo siz haqingizda politsiyaga ma'lum qilaman...

* * *

-Ajoyib revolver,-maqtadi sotuvchi molini.-Agar istasangiz, bundan ham zo'rini topib beraman. Ammo sal qimmatroq turadi.

-Rahmat, menga shu ham bo'laveradi,-dedi xaridor.-O'q ham berasiz.

-Albatta, albatta,-dedi qurol-yarog' do'koni sotuvchisi ro'yxatga olish daftarini olarkan.-Ism-familiyangizni yozib qo'yishga majburman, janob Rayt. Qoidasi shunaqa...

* * *

Kech soat to'qqizlarda Edvard Raytning eshigi qo'ng'irog'i jiringladi.

Rayt eshikni ochdi.

-Kel, Mark,-taklif qildi u.

-Uni sen o'ldirding, Ed,-dedi tashrif buyuruvchi salomlashish o'rniga uning qorniga revolver tirarkan.-U sen bilan ajrashmoqchi edi, lekin uni qo'yib yuborging kelmadi. Undan biz haqimizda senga aytmasligini so'ragandim, ammo u rostini aytdi va sen uni o'ldirding...

-Aqldan ozibsan!-dedi Rayt.

-Sen ayyorona yo'l tutding. Qotillik xuddi baxtsiz hodisa kabi bo'lgani uchun politsiya sendan shubhalanmadi. Buni qanday amalga oshirding, Edvard?

-Uni urdim,-qovog'ini uyganча javob qaytardi Edvard Rayt ko'zini revolverdan uzmasdan.-Boshiga bir necha marta urdim, so'ng zinadan itarib yubordim Politsiyaga aytishni xayolingga ham keltirma, baribir buni isbotlay olmasan.

-Meni politsiyaga boradi deb kim aytdi senga! Bormayman. Biz boshqacha ish qilamiz... bir varaq qog'oz ol-da, "Bo'ldi, boshqa

This is not registered version of TotalDocConverter

chidunmayibni o'ylagan kelesang tayyorlan deb yoz. Mark revolveri bilan Edvard Raytni turtib qo'ydi.-Bo'l, ablah!

-Yozmayman.

-Yozasan, Edvard, yozasan,-mehmon revolverni uning peshonasiga tiradi.

-Sen xato qilyapsan, Mark,-ingradi Rayt.-Suvdan quruq chiqolmaysan. Seni albatta qo'lga olishadi.

-Nima uchun? O'zingni o'zing o'ldirganing uchunmi?-xoxoladi Mark.

-Buni yozganim bilan hech kim o'zimni o'ldirganimga ishonmaydi.

Mehmon to'pponchani uning peshonasiga qattiqroq tiragach, Edvard Rayt boshqa iloji yo'qlini tushundi. U qog'oz olib, mehmon aytgan so'zlarni yozdi.

-Endi menga qara, Edvard

Ko'zini qog'ozdan olgan Rayt kutilmagan manzaradan seskanib ketdi. Uning oldida mutlaqo boshqa odam - yasama soch kiygan, qalin qoshli erkak turardi.

-Kimga o'xshayman, bilyapsanmi?-so'radi mehmon.-Senga, Edvard, senga To'g'ri, biz egizakmasmiz, ammo bo'ylarimiz teng.

-Sen menga o'xshab yuribsanmi-kalovlandi Edvard Rayt.

-Endi tushunding. Keyingi kunlarda nima bilan mashg'ul bo'lganingni eshitsang hayron qolasan. Masalan, kecha sen ko'prikdan o'zingni tashlamoqchi bo'lding. Bir politsiyachi hayotingni saqlab qoldi. Bugun esa bir quti uyqu dori ichganing uchun psixiatr oshqozoningni yuvdi. Bir soat ilgari esa revolver sotib olding... xullas, keyingi ikki kunda juda faol inson bo'lding.

-Do'stlarim-chi? Hamkasblarim? Ular senga ishonishmaydi,-dedi Rayt.

-Adashyapsan,-iljaydi Mark.-Odam o'zini o'ldirganidan keyin atrofidagilar uning keyingi paytda judayam g'amgin bo'lib qolganini eslashadi. Ishonchim komil, xotining o'lganidan so'ng o'zingni qayg'u-iztirob chekayotganday ko'rsatgansan. Sen o'zingni o'ldirmoqchi bo'lganingga guvohlik beruvchi odamlar albatta topiladi. Alvido, Edvard!..

Shu so'zlarni aytgach, Mark revolverini Edvard Raytning og'ziga tiqdi va tepkini bosdi.

Sevikli ayolining qotilini bir yoqli qilgach, u to'pponchani artib-tozalab, Edvardning qo'lga qistirib qo'ydi. So'ngra jasadning hamyonini ochdi va unga psixiatrning tashrif varaqasi bilan to'pponcha sotib olganligi haqidagi to'lov qog'ozini solib qo'ydi.

-Uni bekor o'ldirding, Ed,-dedi Mark yasama qoshlarini sug'urib olarkan.-Uni sen baribir sevmasding. U bilan ajrashishing kerak edi...